



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yili 8-sinf II yarim
yillik uchun jahon tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 8-sinf uchun jahon tarixi fanidan II yarim yillik
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Oltin O‘rda xonligi. (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	O‘rta asrlarda Hindiston	1		
3.	O‘rta asrlarda Xitoy	1		
4.	O‘rta asrlarda Yaponiya va Koreya	1		
5.	O‘rta asrlarda Afrika	1		
6.	O‘rta asrlarda Amerika xalqlari	1		
7.	O‘rta asrlar Yevropa aholisining kundalik hayoti	1		
8.	XIII–XV asrlarda Yevropa iqtisodiy rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari	1		
9.	Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari	1		
10.	3-Nazorat ishi	1		
11.	Yevropada ilm-fan	1		
12.	Yevropada me‘morchilik va san‘at	1		
13.	Ilk uyg‘onish davri madaniyati	1		
14.	Ilk uyg‘onish davri madaniyati	1		
15.	Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari madaniyati	1		
16.	Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari madaniyati	1		
17.	4-Nazorat ishi	1		
18.	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Oltin Oʻrda xonligi. (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini eʼlon qilish)

Darsning maqsadi:

Taʼlimiy: oʻquchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, turli mamlakatlarga oid tarixiy voqealarni tahlil etish, qiyoslash hamda ularga nisbatan fikr bildirishni oʻrgatish.

Tarbiyaviy: oʻquvchilar mustaqil ishlashga oʻrgatish, oʻquvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish. Yevropada Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Osiyoda Amir Temur va Temuriylar saltanati, Usmoniy turklar sultonligi, Oltin Oʻrda, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Koreya kabi davlatlar jahon xalqlari hayotida oʻziga xos tarix yaratilishi, Sharq va Gʻarb mamlakatlari davlat boshqaruvida – kengash, General shtatlar, parlament vujudga kelishi va ular hozir ham muhim ahamiyatga ega ekanligini haqida oʻquvchilarga tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi ijtimoiy-iqtisodiy soha yuksalishiga zamin boʻlganligi, turli siyosiy jarayonlar taʼsirida dehqonlar qaramligi bekor qilinishi, shaharlar hayoti taraqqiy etib borilishi, Buyuk ipak yoʻli orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlari oʻzaro qizgʻin savdo-sotiqni amalga oshirilganligi oʻz navbatida, Sharq va Gʻarb, Shimol va Janub mamlakatlari hamda xalqlari oʻrtasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishi haqida tushuncha berish.

Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

oʻz fikrini ogʻzaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan toʻgʻri qoʻya olish va javob berish;
ijtimoiy moslashuvchanlik, oʻzaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni oʻqiy olish va foydalanish; inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, koʻrgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “koʻrsam tezroq oʻrganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: «Jahon tarixi» 8-sinf uchun darslik, mavzuga oid koʻrgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar oʻquv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Boʻlimlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	Oʻtgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani soʻrash: a) Savol – javob oʻtqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.


III. Yangi mavzu bayoni:

Oltin Oʻrda davlati Chingizxonning toʻngʻich oʻgʻli Joʻji ulusi hududida tashkil topgan. Chingizxon davlatni oʻgʻillari oʻrtasida taqsimlagan paytda Joʻjiga eng katta hududlar berilib, u gʻarbda Irtish daryosidan sharqda Volgaboʻyiga qadar choʻzilib, Dashti Qipchoq, Shimoliy Xorazm, Amudaryo va Sirdaryoning quyi etaklarini oʻz ichiga olgan holda Joʻji ulusi tashkil topgan.


Jo'ji vafot et gach uning o'g'li Botuxon ulus yerlar ini kengaytirish maqsadida harbiy yurishlarni boshlab yuboradi. Botuxon 1237–1242-yillarda Rus va Sharqiy Yevropada juda katta istilolarni amalga oshiradi, xususan, Polsha, qisman Serbiya va Bolgariyani bo'ysundiradi. Keyinchalik Chexiya va Vengriyaga ham bostirib kiradi. Shu tariqa katta hududlarni bosib olgan Botuxon XIII asrning 40-yillari boshi da Volga bulg'orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim, G'arbiy Sibir hududlarini o'z ichiga olgan Oltin O'rda davlatiga asos soladi. Rus knyazlari Oltin O'rdaga qaram bo'lib, soliq to'lab turadilar. Bu mamlakat rus manbalarida Oltin O'rda, Sharq manbalarida esa Jo'ji ulusideb atalgan.



Oltin O'rda davlatining oltin pullari va zargarlik buyumlari



Oltin O'rdani xon boshqargan. Xonlar faqat chingiziylar urug'idan va Jo'ji avlodlaridan bo'lishi shart edi. Xonnisaylash masalasi zodagonlar yig'ini – qurultoydahal etilgan. Saylangan xon oq kigizda ko'tarilib, taxtga o'tqizilgan, so'ngra unga oltin qilich topshirilgan. Qurultoyda urush va tinchlik masalasi, uluslarning chegaralarini qayta ko'rib chiqish hamda yirik feodallar o'rtasidagi nizolar masalalari ham muhokama qilingan. Ijro hokimiyati boshlig'i beklarbegi hisoblangan va davlat ishlari bilan shug'ullangan. Oliy amaldor vazir bo'lib, u Devonxonaga rahbarlik qilgan. Uning boshchiligidagi devon soliq, moliya va savdo ishlariga mas'ul bo'lgan. Oltin O'rdaning hukmron qatlami asosan mo'g'ullardan, qisman qipchoqlardan iborat bo'lsa-da, Eron va arab davlatlaridan kelgan bilimlikishilar ham ma'muriy lavozimlarda ishlaganlar. Viloyat va shaharlarga hokim qilib dorug'alari yuborilgan.



To'tamishxonning Moskvaga bostirib kirishi haqida hikoya qiluvchi xronika

Botuxon rus knyazliklarini bo'ysundirgan bo'lsa-da, ammo bu hududlar Oltin O'rda tarkibiga kiritilmagan. Rus knyazliklari vassal hisoblanib, soliq to'lashi va xonning buyrug'ini bajarishi kerak edi. Rusda barcha knyazlar Oltin O'rdadan boshqaruv yorlig'ini olishlari

shart bo'lgan. Oltin O'rda qudratli bo'lganligi sababli rus knyazlari mo'g'ullar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga harakat qilganlar hamda ularga to'xtovsiz o'lpon to'lab turganlar. Bu orqali knyazlar o'z xalqini mo'g'ullarning talonchiligi va qulga aylantirilishidan saqlab qolganlar. XIV asrning o'rtalariga kelib Oltin O'rdada siyosiy nizolar avj olishi bilan rus knyazliklari unga qarshi birlashib, katta harbiy kuch to'play boshladilar. Ular o'rtasida bir necha bor harbiy to'qnashuvlar bo'lib, bu urushlarda goh Oltin O'rda xonlari, goh rus knyazlarining qo'li baland kelib turgan. Oxir-oqibat 1480-yilda Oltin O'rdaning Moskva knyazi Ivan III ni bo'ysundirish uchun qilgan urinishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Natijada knyaz Oltin O'rdaga boj-yasoq to'lash dan bosh torta di. Shu tariqa rus yerlarida uzoq davom etgan mo'g'ullar hukmronligi nihoyasiga yetadi. Oltin O'rda davlati hukmdorlar O'zbekxon (1312–1342) va uning vorisi Jonibekxon (1342–1357)lar davrida siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlatga aylandi. O'zbekxon katta ma'muriy-hududiy islohotlar o'tkazdi va imperiya hududini 70 ta tumanga bo'lib, ularni ulusbegilar boshchiligidagi o'nta yirik viloyatga birlashtirdi. Natijada xon hokimiyatni o'z qo'lida mustahkam ushlab, chekka hududlardagi barcha ayirmachilik harakatlarini shafqatsizlarcha bostirdi. Shuningdek, ichki nizolarga chek qo'yib, davlat

hokimiyatini markazlashtirish orqali Oltin O'rdaning yuksalishiga erishdi. 1314-yilda islomni qabul qilib, uni davlat dini deb e'lon qilishi ham Oltin O'rda qudratini mustahkamlagan omillardan biri bo'ldi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Oltin O'rda davlatining tashkil topishi, davlat boshqaruv tizimi;
2. Tashqi siyosat, rus knyazliklari va Amir Temur bilan munosabatlari;
3. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, soliq va majburiyatlar;

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

1. Mamlakat boshqaruvining o'ziga xos jihatlari bo'ladimi?
- Sizning cha, Oltin O'rda xonlari davlat boshqaruvi sohasida qanday yutuqlarga erishganlar?
2. Oltin O'rdaning yuksalishiga qanday omillar sabab bo'lganini aniqlang.
 3. Amir Temur davlati bilan munosabatlar nega keskinlashdi va buning oqibati nimaga olib keldi?

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O'rta asrlarda Hindiston

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, turli mamlakatlarga oid tarixiy voqealarni tahlil etish, qiyoslash hamda ularga nisbatan fikr bildirishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: o'quvchilar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish. Yevropada Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Osiyoda Amir Temur va Temuriylar saltanati, Usmoniy turklar sultonligi, Oltin O'rda, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Koreya kabi davlatlar jahon xalqlari hayotida o'ziga xos tarix yaratilishi, Sharq va G'arb mamlakatlari davlat boshqaruvida – kengash, General shtatlar, parlament vujudga kelishi va ular hozir ham muhim ahamiyatga ega ekanligini haqida o'quvchilarga tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi ijtimoiy-iqtisodiy soha yuksalishiga zamin bo'lganligi, turli siyosiy jarayonlar ta'sirida dehqonlar qaramligi bekor qilinishi, shaharlar hayoti taraqqiy etib borilishi, Buyuk ipak yo'li orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'zaro qizg'in savdo-sotiqni amalga oshirilganligi o'z navbatida, Sharq va G'arb, Shimol va Janub mamlakatlari hamda xalqlari o'rtasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishi haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: «Jahon tarixi» 8-sinf uchun darslik, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqli
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:



Shamsiddin Eltutmish

Hindistondagi mahalliy hukmdorlarning o'zaro urushlari va mustaqillikka intilishi markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi ga olib keldi. Bundan foydalangan turk va afg'on qabilalari Hindistonning shimoliy hududlariga bir necha bor hujumlar uyushtirdilar. Keyinchalik ular bu yerga o'rnatilib, 1206-yilda Qutbiddin Oyboq (1206–1210) tomonidan Dehli sultonligiga asos solinadi. Qutbiddin Oyboq turkiy qabilalardan qo'shin tashkil qilib, Hindistonga yurishlarni davom ettiradi. Sulton Qutbiddin Oyboqning vafotidan so'ng taxtga uning turk g'ulomi bo'lgan Shamsiddin Eltutmish (1211–1236) keladi. U Sultonlikka Panjob, Sind, Bengaliyani qo'shib olib, mamlakat hududini sezilarli darajada kengaytiradi. Uning davrida sultonlikning shon-shuhrati Hindiston chegaralaridan

tashqariga chiqib, 1229-yilda Bag'dod xalifasi tomonidan Eltutmish mustaqil hukmdor deb e'tirof etiladi. XIII asr oxirida Dehli sultonligi o'z qudratining cho'qqisiga chiqdi. 1290-yilda Jaloliddin Feruzshoh hokimiyatni egallab, xiljiylar sulolasiga asos soldi. Uning davrida musulmonlar mulki Janubiy Hindistonga qadar yetib bordi. Sulton Alouddin Xilji esa kuchli qo'shin tuzib, o'zboshimcha feodallarni bo'ysundirdi. Dekan, Gujarot va Rajastonni egalladi. Dehli sultonligining kuchli va intizomli qo'shinga ega bo'lishi shimoldan mo'g'ullar hujumlarini qaytarish imkonini berdi Dehli sultonligi XIV asrda yirik davlat bo'lib,



Hukmdor Roziya



uning tarkibiga Shimoliy Hindistondan tashqari, Markaziy Hindiston viloyatlari va Dekan yasitog'ligidagi mulklar ham kirgan. O'zini "Iskandar Zulqarnayn ning davomchisi" deb nomlagan Sulton Muhammad Tug'luq (1325–1351) deyarli butun Hindistonni bo'ysundirdi. Feruzshoh Tug'luq davrida soliqlar kamaytirilib, davlat yerlari dehqonlarga ijaraga bo'lib berildi. Shu bilan birga, shahar aholisining savdo va hunarmandchilikdan to'laydigan asosiy solig'idan tashqari boshqa boj va yig'imlar ham bekor qilindi. Feruzshohning hukmronlik yillarida qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning

yuksalishi, katta bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilishi hamda davlatni oqilona boshqarish sultonning obro'sini oshirib, u "xalq homiysi" deb nom oldi. Ammo mamlakatda XIV asrning ikkinchi yarmida boshlangan siyosiy tarqoqlik natijasida ayrim knyazlarning mustaqillikka intilish jarayoni kuchayib, sultonlik tarkibiga kirgan viloyatlarning ba'zilar mustaqil davlatlarga aylana boshlaydi.

Amir Temurning vafotidan so'ng mustaqil davlat tuzish imkoni vujudga kelgandan foydalangan Xizir Xon hokimiyatni o'z qo'liga olib Sayyidlar sulolasiga asos soldi. Ammo bu sulola hukmdorlarining hokimiyati Dehli va uning atrofidan nariga o'tmadi. XV asrning birinchi yarmiga kelib sultonlik avvalgi qudratini yo'qotib, Dehli shahri va uning atrofidagi yerlarni egallagan oddiy davlatlardan biriga aylanib qoldi. Sayyidlar sulolasi hukmronligining oxiriga kelib yirik feodallarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashi va ularning ayirmachilik harakati natijasida Dehli sultonlari shunchaki qo'g'irchoqqa aylanib, faqat nomigagina hukmronlikni saqlab qoldilar. Hatto o'sha davrda "Sulton Shoh Olamning kuchi Dehlidan Palamgacha" degan ibora paydo bo'ldi.



Ibrohim Lo'diy

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Dehli sultonligi tashkil etilishi va uning yuksalib borishi. Davlat boshqaruvi;
2. Yer egaligi, sultonlikda bir qator islohotlarning o'tkazilishi va uning natijalari;
3. Sultonlikning inqirozga yuz tutishi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

1. Hindistondagi qaysi vaziyat Dehli sultonligining tashkil topishi da muhim ahamiyat kasb etdi?
2. Sultonlik davlat boshqaruvining Hindistondagi an'anaviy boshqaruvdan qanday farqlari bor?
3. Dehli sultonligining tanazzulga uchrashiga qaysi omillar sabab bo'ldi?

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi


38 listdan iborat jahon tarixi fanidan 8-sinf II yarim yillik konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**